

**KASBIY TA'LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO TA'LIM DASTURLARI**

Matrazov Kuranmurat Salayevich,

Urganch tuman 2-son kasb-hunar maktabi direktori .

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy ta'linda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiylari va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga qilingan.

Kalit so'zlar: "Ekspeditor", "Pirson", BITEK

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioxcha etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurmoqda. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiylari va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, Oktabr 2024

tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lif va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Hozirga qadar professional ta'lif tizimi 3 ta turdag'i jami 672 ta muassasa: 333 ta kasb-hunar maktabi, 112 ta kollej va 227 ta texnikumdan iborat bo'lib, ushbu muassasalar tabaqlashgani va dasturlari o'rtasida uzviylik bo'lmagani natijasida, ularning quvvatlaridan unumli foydalanilayotgani aniqlangan. Endilikda Prezident farmoni bilan 3 ta turdag'i muassasalarni optimallashtirilib, ularning negizida barcha darajalar va yo'nalishlar bo'yicha kadr tayyorlaydigan yagona muassasa turi – texnikumlar tashkil etiladi. Bunda, 672 ta professional ta'lif muassasalari negizida 600 ta texnikum tashkil etiladi, 71 ta ta'lif muassasalari maktablarga berilib, 42 mingta yangi o'quvchi o'rnlari yaratiladi. Barcha dasturlarni bitta muassasa negizida o'qitish natijasida ta'lif darajalarining uzviyligi, uzuksizligi va integratsiyasi ta'minlanadi hamda ularning smena koefitsiyenti normallashadi. Jumladan, professional va oliy ta'lif modullarini yagona dasturga birlashtirish va "2+2", "1+3" kabi moslashuvchan dasturlar bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Texnikumlarda o'qish muddatlari va davomiyligini kasb murakkabligi va o'quvchining ta'lif darajasiga qarab belgilanadi. Misol uchun, "Ekspeditor" kasbi bo'yicha 9-sinf bitiruvchisi 3 yil o'qisa, 11-sinf bitiruvchisi 2 yil o'qiydi. O'z navbatida turli darajadagi kasbiy ta'lif dasturlarining o'zaro muvofiqligi va uzviyligi ta'minlanadi, ya'ni o'zlashtirilgan modullardan kelib chiqib ta'lif dasturlarining o'qitish muddatlari belgilanadi. O'rta maxsus kasbiy ta'lif dasturlarining bitiruvchilar o'zlashtirgan modullari, to'plangan kreditlari va oliy ta'lif tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning muayyan bosqichidan o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladir. Texnikumlarning mustaqilligi kengaytiriladi va ular ish beruvchilar talabi asosida fanlar soni va soatlarini 30 foizgacha o'zgartirish va qo'shma dasturlarni joriy qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Texnikumlar buyurtmachilar bilan kontrakt asosida kadrlarni tayyorlash bo'yicha shartnomalar tuzish, ushbu dasturlarning qabul parametrlari, ta'lif tili va qiymatini mustaqil belgilaydi. Shuningdek, texnikumlarga mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish, tushgan pullar hisobidan o'zining moddiy holatini yaxshilash, o'quvchilar va pedagoglarni rag'batlantirish huquqi berilmoqda.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, Oktabr 2024

Farmonga muvofiq, xalqaro ta'lism dasturlari bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yish bo'yicha qator ishlar amalga oshiriladi. Xususan, dasturlar sifati va jozibadorligini oshirish maqsadida 14 ta texnikumda tajriba tariqasida 12 ta kvalifikatsiya bo'yicha "Pirson" kompaniyasining BITEK dasturini joriy qilinadi. Ta'kidlash joizki, Pirson yetakchi xalqaro ta'lism tashkiloti bo'lib, dunyo bo'ylab 784 ta markazga ega va uning 90 foiz bitiruvchisi ish bilan ta'minlanadi.

Bunda, har bitta texnikumda BITEK dasturi bo'yicha alohida bo'lim tashkil etiladi. Bo'lim xodimlari Pirson kompaniyasi bilan hamkorlikda dastur joriy qilinishini to'liq muvofiqlashtirib boradi. BITEK dasturi joriy qilingan muassasalarga to'liq akademik mustaqillik beriladi.

BITEK dasturlarini amaliyatga kiritish natijasida 180 nafar pedagogning malakasi oshiriladi va yiliga 1 680 nafar talabgor o'qishga qabul qilinadi. Bitiruvchilarga 70 ta davlatda tan olinadigan diplom beriladi va 200 dan ortiq xorijiy universitetlarga kirish imkonii yaratiladi. Natijada, rivojlangan davlatlardagi malakali va yuqori daromadli ish o'rinaliga yuborilgan muhojirlarning ko'لامи oshadi. BITEK dasturlarini joriy qilish natijasidan kelib chiqib, ushbu tajriba bosqichma-bosqich boshqa texnikumlarga ham tatbiq etiladi.

Prezidentning mazkur Farmoni bilan o'qitish jarayoniga ish beruvchilar keng jalg qilinadi. Hozirgacha qabul parametrlari va ta'lism dasturlari ish beruvchilar talabi asosida emas, balki ta'lism muassasalaridagi o'qituvchilar va mavjud asbob-uskunalaridan kelib chiqqan holda shakllantirilib kelinayotgani bois muayyan hududlarda muayyan o'rta bo'g'in kadrlarga ehtiyoj bo'lsa-da, o'sha hududda joylashgan texnikumda ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilmaganini kuzatish mumkin. Bu holatni bartaraf etish maqsadida qabul parametrlarini shakllantirish bo'yicha elektron platforma yaratiladi, barcha vazirlik va ish beruvchilar unga ulanadi. Texnikumlarning ta'lism dasturlari tarmoq kengashlari, tadbirkorlar birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so'ng amaliyatga kiritiladi. Bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi ish beruvchilar va uyushmalar vakillari ishtirokida amaliy imtihon shaklida o'tkaziladi. Professional ta'lism muassasalarida o'quvchilar bilimini yakuniy baholash asosan muassasadagi xodimlardan tashkil topgan komissiya tomonidan o'tkazilishga barham beriladi. Farmonga ko'ra, sohada zamonaviy boshqaruvi tizimi joriy etiladi. Hozirgacha professional ta'linda yaxlit boshqaruvi tizimi mavjud bo'lmaganligi va muassasalar 27 ta vazirlik va idoralar bo'ysunuviga berilganligi sababli, ularning faoliyati samarali tashkil

etilmagan. Vazirliklar o'rtaida muvofiqlashtirish bo'limganligi sababli 75 ta kasbga o'qitish markazida o'qitilayotgan 30 dan ortiq kasblar yaqin hududdagi 275 ta professional ta'lim muassasasida ham o'qitilmoqda.

Shunga ko'ra, professional ta'limda tashkiliy-boshqaruva va metodik masalalarni muvofiqlashtiruvchi va yagona davlat siyosatini yurituvchi organ sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilanmoqda. Bunda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim muassasalarida o'qitilishi mumkin bo'lgan kasblar ro'yxati, ular bo'yicha beriladigan malaka darajalari va o'qitishning minimal muddatlarini belgilaydi. Professional ta'lim muassasalarini adabiyotlar va jihozlar bilan ta'minlash hamda o'quv jarayonini raqamlashtirish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida alohida Jamg'arma tashkil etilmoqda. Bunda Jamg'armaga Vazirlikning budgetdan tashqari jamg'armasidan 50 mld so'm va Davlat budgetidan 2025-yilda 50 mld so'm ajratiladi. Texnikumlarning direktor va direktor o'rinnbosari lavozimlariga talabgorlarni tanlash Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining onlays platformasi orqali ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi. Texnikum direktorlari bilan 3 yillik mehnat shartnomasini tuzish va faoliyat natijasidan kelib chiqib, ular bilan shartnomani uzaytirish yoki bekor qilish tartibi joriy etiladi. Joriy etilayotgan choralar O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimi yanada takomillashtirish, ishsizlikni kamaytirish va malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cspu.uz/>
2. <https://lex.uz/>
3. <https://gov.uz/>
4. Arxiv.uz
5. Gazeta.uz
6. S.Otajonov "Mavzu ishlanmasi" tayyorlashning innovatsion xarakteriga ega bo'lgan metodlari. Monografiya-2022